

“YOZMA ISH TURLARI TARKIBIDA ESSENING AHAMIYATI”

**Annotation**

Mazkur maqolada yozma ish turlari, insho, diktant, ijodiy bayonning o`quvchilar yozma savodxonligini oshirishdagi ahamiyati, BMBA test sinovlari talablariga aylanib borayotgan esse haqida fikr va namunalar, o`quvchilar kreativ fikrlashini oshirishda essening o`rni haqida so`z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yozma ish turlari, insho, diktant, ijodiy bayon, esse va uning qolipi, imloviy va uslubiy xatolar, esse namunasi.

Ona tili ta‘limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy masala o‘quvchini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki va yozma bayon qilishga kommunikativ savodxonlikka o‘rgatishdan iborat. Yosh avlodda ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakab jarayon bo‘lib, ona tili ta‘limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi. Bu parametrlar bo‘yicha o‘quvchilarning bilish darajasini quyidagicha aniqlash va baholash mumkin:

- 1) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- 2) mavzuning murakkabligi asosida o‘quvchi fikrlash qobiliyatini aniqlash;
- 3) tavsifning mavzuga mos tushganligi;
- 4) tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanganligi;
- 5) imloviy savodxonlik sifati.

Ilmiy harakterdagи ishlar uchun yozma ish, ijodiy ishlar uchun esa insho termini qo‘llanadi.

O‘quvchini

kasbga yo‘naltirish, muayyan sohalar haqida tasavvur va bilim hosil qilish har bir fan o‘qituvchisining burchi hisoblanadi. Bunda ona tili va adabiyot darslarida joriy qilingan insho, diktant, ijodiy bayon yetakchi asoslardan biri hisoblanadi.

Insho arabcha so‘z bo‘lib, “tashkil etish”, “yaratish”, “qurish”, “barpo qilish”, “ijod”, “bayon”, “tahrir” ma’nolarini anglatadi. Insho muallifning ma’lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turidir. Insho belgilangan maqsadga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: ta’limiy insholar va sinov insholari. Mazmun-mohiyatiga ko‘ra esa adabiy mavzudagi va erkin mavzudagi insholar farqlanadi.

Pedagogik maqsadiga ko‘ra inshoslar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

1. Ta’limiy insholar.
2. Nazoratga qaratilgan insholar.
3. Ko‘rik-tanlov insholari.

Matnlar uslub jihatidan rang-barangdir. Ona tili mashg‘ulotlarida badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy matnlardan foydalaniladi. Har bir uslub o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ma’lum bir me’yorni talab etadi.

Bayon arabcha “aniqlik”, “ravshanlik”, “tavsiflash”, “ifodalash” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, o‘qib yoki aytib berilgan biror matn asosida yozib chiqilgan ishni ifoda etadi. Bayon – yozma ishlarning asosiy turlaridan biri bo‘lib, o‘quvchining matn mazmunini o‘z so‘zi bilan yozma ravishda qayta bayon etishdan iborat ijodiy ishidir.

Diktant lotincha dictare “hadeb gapiravermoq”, “takrorlamoq”; “aytib turib” ma’nolarini ifoda etadi. Imloviy va punktuatsion qoidalarning o‘zlashtirilish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish.

Barchamizga ma’lumki, ona tili va adabiyot darslarida tashkil etiladigan yuqoridagi yozma ish turlari o‘quvchilarda mustaqil va kreativ fikrlash, tinglab tushunish, diqqatni ma’lum bir nuqtaga qarata olish qobiliyatini shakllantirish, so‘z boyligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, nutqiy rivojlantirish va adabiy til

me'yorlarini mustahkamlash, imloviy, uslubiy hamda ishoraviy xatolarga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini isloh etish, har tomonlama tarbiyaviy jihatdan komil inson tushunchalarini singdirish va boshqa ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, undagi islohotlar va o'zgarishlar hech bir sohani chetlab o'tmaydi. Bunday yangilanishlar ta'lim sohasida ham qator o'zgarishlarni va jahon ta'lim standartlariga raqobatbardosh tizim yaratish kabi dolzarb vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganish, undan andoza olish, fikr almashish va tajriba orttirish milliy ta'lim tizimimizning sezilarli darajada o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. So'ngi yillarda ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajribalar joriy qilindi. Til ta'limida o'quvchilar yozma nutq malakasini baholash usuli sifatida qo'llanib kelingan insho, diktant, bayon qatoriga esse tushunchasi ham qo'shildi.

Esse fransus tilida "tajriba"; ingliz tilida "ocherk"; "intilish"; lotinchada "o'y lash" degan tushunchalarni anglatadi. Esse erkin kompozitsiyali uncha katta bo'lмаган (1000-5000 ta so'zgacha) nasriy asar. O'zbek adabiyotiga esse tushunchasi XX asrning ikkinchi yarimida yaratila boshlangan bo'lishiga qaramay, uning ommalashishi XXI asrga to'g'ri keladi. Esse o'zi nima? Esse yozish tartibi qanday? degan savollar aksariyat o'quvchilarni o'ylantiradi. Esse- bu muallifning alohida individual pozitsiyaga ega erkin shakldagi bayon bo'lib, jamiyatda sodir bo'layotgan voqeа-hosidaga ijodiy fikrlab yoziladi. Esse o'quvchida shakllanib qolgan inshoga o'xshab yoziladigan yozma ish turi. Ammo inshodan farqli ravishta reja va epigraflar tanlanmaydi, qat'iy qoliplashgan yozma ish turi sanaladi. Inshoda ko'zlanish kerak bo'lgan markaz tinglovchining qalbi bo'lsa, esse ikkinchi shaxsning aqliga xujum demakdir. Essening muhim o'ziga hos jihatlaridan biri tezis hisoblanib, bu essening yuragi demakdir.

Essening ham bir qancha turlari shakllangan bo'lib, ular quyidagicha tafsiflanadi:

1. adabiy esse- argumentli, munozarali, tafsiflovchi, umumlashtiruvchi, ijodiy;

2. publististik esse
3. tarixiy-biografik esse
4. falsafiy esse
5. ilmiy-ommabop esse
6. sof bellestristik esse v.h

Esseda qat’iy qolip shakllangan bo‘lib, uning tarkibi kirish qismi, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. BMBA test sinovlarida, asosan, argumentli va munozarali esse joriy qilingan bo‘lib, publististik uslubda adabiy til me’yorlariga riosa qilgan holda yozilishi talab qilinadi. Qat’iy qolipga amal qilinadi.

Kirish qismida mavzu bo‘yicha ma’lumot beriladi. Mavzuni sinonimlaridan foydalanib, qoliplashtirib yoziladi va eng asosiysi tezisni mavzuga mos ravishta tanlash talab etiladi.

Asosiy qismda argumentlarni keltirish va uni dalillarga tayangan holda shaxsiy fikrlab izohlash talab etiladi. Kirish so‘zlar, statalar, maqollar mavzuga mos tanlash kerak. Takrorlardan, imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolillarga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlash, mavzudan chekinish holatlarining oldini olish talab etiladi. Asosiy qism 3 abzas va 200-350 so‘zdan iborat bo‘lishi talab etiladi.

Xulosada faktlar va fikrlar asosida yakunlovchi hukm keltiriladi.

Esseda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Tuzilish va izchillik (mantiqiy bog‘liqlik va ravonlik)
2. Shaxsiy fikr va ijodiy yondashuv (o‘ziga xos va chuqur fikrlar)
3. Til boyligi va grammatik aniqlik
4. Dalillarning chuqurligi va ishonchliligi

Esse yozishning asosiy maqsadi- fikrni aniq va mantiqiy ifodalash, tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hama o‘z nuqtayi nazari asosida dalillar bilan ifodalash.

Esse quyidagi kompozitsion qurilishga ega bo‘lishi lozim.

Kirish:

1. Umumiy gap
2. Topshiriq matni perefrazasi
3. Tezis

Asosiy qism:

1. Birinchi tomon qarashi. Masala yuzasidan birinchi tomon vakillari o‘z fikrlarini quyidagicha asoslaydi.

Birinchidan...

Ikkinchidan ...

Masalan ...

2. Ikkinchi tomon qarashlari. Shunga qaramay, qarshi tomon fikrlari ham yetarlicha asoslarga ega.

Avvalo ...

Bundan tashqari ...

Qolaversa ...

3. Talabgor shaxsiy fikri.

Mening fikrimcha ...

Xulosa. Asosiy qismda aytilgan fikrlar umumlashmasi.

Yuqorida keltirilgan dalillardan shuni xulosa qilish mumkinki, o‘quvchilarda yozma savodxonlikni oshirishda yozma ishning har bir turi o‘ziga hos muhim ahamiyatga ega. Diktant tinglab tushunishni shakllantirsa, insholar mantiqiy va mustaqil fikrlashni, esse esa aqlni charxlovchi, kreativ yondashish ko‘nikmasini shakllantirish uchun hizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz,” – degan so‘zları biz uchun dasturulamal vazifasini o‘tamoqda¹.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 14- bet.

Darhaqiqat, insho yozma nutqni, fikrni o'stirish, tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Inson qaysi kasb egasi bo'lmashin, yuksak tafakkur sohibi bo'lsagina, yangilik yaratadi. Yozma nutq malakalarini shakllantirish, og'zaki nutqni takomillashtirish faqat soha doirasidagi muammo emas, balki umumta'lim jarayonidagi zururatdir. Negaki yozma va og'zaki nutqning me'yoriy darajada shakllanishi fikrlash tezligini oshirishga, o'quvchi tafakkur doirasini kengaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.
2. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. -Toshkent "Turon zamin ziyo", 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. Ona tili va adabiyot fani namunaviy o`quv dasturi. Toshkent. 2017